




FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG'ONA VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI
2024-YIL YANVAR- SENTABR
(DASTLABKI MA'LUMOT)





Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6 678 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 743 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 11,1 %i) Qo'qon shahriga, 709 tasi (10,6 %) Farg'ona shahriga, 597 tasi (8,9 %) Marg'ilon shahriga, 499 tasi (7,5 %) Uchko'prik tumaniga va 391 tasi (5,9 %) O'zbekiston tumaniga to'g'ri kelmoqda.


| Shahar, tuman nomi | 2024-yil 1-oktabr holatiga korxonalar soni (birlik) | | |
|--------------------|---|-----------------------|---|
| | Faoliyat ko'rsatayotgan | Yangi tashkil etilgan | Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda shahar, tumanlar ulushi, % da |
| Jami: | 6 678 | 1058 | 100,0 |
| Farg'ona sh. | 709 | 100 | 10,6 |
| Qo'qon sh. | 743 | 76 | 11,1 |
| Quvasoy sh. | 196 | 38 | 2,9 |
| Marg'ilon sh. | 597 | 92 | 8,9 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Oltiariq | 303 | 41 | 4,5 |
| Qo'shtepa | 273 | 80 | 4,1 |
| Bag'dod | 336 | 66 | 5,0 |
| Buvayda | 265 | 43 | 4,0 |
| Beshariq | 203 | 32 | 3,0 |
| Quva | 295 | 53 | 4,4 |
| Uchko'prik | 499 | 61 | 7,5 |
| Rishton | 357 | 75 | 5,3 |
| So'x | 207 | 28 | 3,1 |
| Toshloq | 281 | 51 | 4,2 |
| O'zbekiston | 391 | 64 | 5,9 |
| Farg'ona | 263 | 48 | 3,9 |
| Dang'ara | 378 | 36 | 5,7 |
| Furqat | 171 | 49 | 2,6 |
| Yozyovon | 211 | 25 | 3,2 |




Farg'ona viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 34 004,0 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 108,3 % ni tashkil etdi.

Yanvar-sentabr
mlrd so'm



Yanvar-sentabr
FHI, % da





| | | |
|---------------|--------|-------|
| Farg'ona sh. | 8464,3 | 104,6 |
| Qo'qon sh. | 5461,5 | 108,5 |
| Quvasoy sh. | 1279,9 | 102,2 |
| Marg'ilon sh. | 1414,3 | 107,8 |
| Oltiariq | 647,1 | 107,6 |
| Qo'shtepa | 1710,0 | 104,1 |
| Bag'dod | 768,7 | 104,3 |
| Buvayda | 722,7 | 109,3 |
| Beshariq | 955,6 | 107,4 |
| Quva | 548,0 | 105,4 |
| Uchko'prik | 2867,1 | 108,4 |
| Rishton | 265,2 | 104,1 |
| So'x | 94,6 | 104,3 |
| Toshloq | 1367,1 | 108,4 |
| O'zbekiston | 914,1 | 108,5 |
| Farg'ona t. | 1035,9 | 106,3 |
| Dang'ara | 875,5 | 107,4 |
| Furqat | 491,9 | 108,1 |
| Yozyovon | 256,6 | 109,1 |

Mrld so'm

FHI % da

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg'ona shahrida (26 095,4 ming so'm), Qo'qon shahrida (17 587,0 ming so'm), Quvasoy shahrida (12 556,6 ming so'm) hamda Uchko'prik tumanida (11 772,8 ming so'm) ni tashkil etmoqda.



| | | |
|---------------|---------|-------|
| Farg'ona sh. | 26095,4 | 102,3 |
| Qo'qon sh. | 17587,0 | 106,8 |
| Quvasoy sh. | 12566,6 | 100,0 |
| Marg'ilon sh. | 5542,4 | 104,9 |
| Oltiariq | 2811,1 | 105,4 |
| Qo'shtepa | 8140,6 | 101,9 |
| Bag'dod | 3271,6 | 102,1 |
| Buvayda | 2899,0 | 106,9 |
| Beshariq | 3910,4 | 105,5 |
| Quva | 1 974,3 | 103,5 |
| Uchko'prik | 11772,8 | 106,0 |
| Rishton | 1213,6 | 102,0 |
| So'x | 1118,2 | 101,8 |
| Toshloq | 6236,8 | 106,8 |
| O'zbekiston | 3843,8 | 106,0 |
| Farg'ona t. | 4642,5 | 104,1 |
| Dang'ara | 4901,7 | 104,9 |
| Furqat | 3840,8 | 105,9 |
| Yozyovon | 2126,7 | 106,9 |

Ming so'm

o'sish sur'ati % da



**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari


Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **31 643,5** mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **93,1 %** ni, tashkil etdi.

Hajmi, mlrd so'm




2024-yilning yanvar-sentabr oylarida Viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Farg'ona shahri (24,9 %), Qo'qon shahri (16,1 %), Uchko'prik tumani (8,4 %), hamda Qo'shtepa (5,0 %) tumanlari hissasiga tog'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Buvayda tumanida (109,3%), Yozyovon tumanida (109,1%) hamda Qo'qon shahrida (108,5 %) kuzatildi.


FHI, % da



Ulushi, % da



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **103,7 mlrd so‘m**ni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **56,4 %** ini tashkil etdi.



Yanvar-sentabr

| | |
|--------|-----------------|
| 2022-y | 65,5 mlrd so‘m |
| 2023-y | 147,4 mlrd so‘m |
| 2024-y | 103,7 mlrd so‘m |

FHI, % da

| | |
|--------|---------|
| 2022-y | 51,4 % |
| 2023-y | 214,0 % |
| 2024-y | 56,4 % |

C seksiya

Ishlab chiqaradigan sanoat

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **31 643,5 mlrd so‘m**ni yoki jami sanoat mahsulotlarining **110,5 %** ini tashkil etdi.

Yanvar-sentabr

| | |
|--------|--------------------|
| 2022-y | 20 327,6 mlrd so‘m |
| 2023-y | 22 241,9 mlrd so‘m |
| 2024-y | 31 643,5 mlrd so‘m |

FHI, % da

| | |
|---------|---------|
| 2022-y | 104,8 % |
| 2023-y | 102,5 % |
| 2024-y. | 110,5% |



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

| Dizel yoqilg'isi | | Avtomobil benzini | | Klinker sement | |
|-----------------------------|-------|-----------------------------|-------|-------------------------------|-------|
| 2024 | 88,4 | 2024 | 90,1 | 2024 | 16,9 |
| 2023 | 139,7 | 2023 | 152,6 | 2023 | 99,6 |
| 2022 | 81,0 | 2022 | 91,0 | 2022 | 88,2 |
| O'simlik yog'i (tozalangan) | | Portlandsement | | Yumshoq bug'doy va spelta uni | |
| 2024 | 26,3 | 2024 | 72,2 | 2024 | 97,0 |
| 2023 | 46,1 | 2023 | 107,2 | 2023 | 81,7 |
| 2022 | 93,1 | 2022 | 93,3 | 2022 | 89,0 |
| Neft bitumi | | Aroq ming litr (100% spirt) | | Uzum vinosi | |
| 2024 | 89,3 | 2024 | 96,8 | 2024 | 164,0 |
| 2023 | 186,8 | 2023 | 106,3 | 2023 | 116,7 |
| 2022 | 64,5 | 2022 | 62,5 | 2022 | 62,9 |
| Karbamid | | Paxta chigiti | | Paxta linti | |
| 2024 | 94,0 | 2024 | 84,9 | 2024 | 114,5 |
| 2023 | 103,5 | 2023 | 141,2 | 2023 | 125,0 |
| 2022 | 96,2 | 2022 | 157,9 | 2022 | 175,1 |

2024-yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 217,6 ming tonna avtomobil benzini (2023-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 0,9% ga kamaygan), 287,5 ming tonna dizel yoqilg'isi (0,8 % ga ko'paygan), 94,3 ming tonna paxta ip mahsulotlari (117,9 % ga ko'paygan) hamda 10 802,7 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar (81,9 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.





Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


| Sanoat mahsulotlari | 2023-yil yanvar-sentabr | 2024-yil yanvar-sentabr | Farqi +/- |
|---------------------------------------|-------------------------|-------------------------|-----------|
| Avtomobil benzini, ming t | 241,5 | 217,6 | -23,9 |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t | 191,9 | 186,1 | -5,8 |
| Paxta chigiti, ming t | 87,1 | 73,9 | -13,2 |
| O'simlik yog'i (tozalangan), ming t | 11,9 | 1,4 | -10,5 |

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 9,0 % (2023-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 117,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 33,2% (2023-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 109,6 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,0 % (2023-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 106,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,9 % (2023-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 111,0 %)ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 %ni (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 15,6 % (14,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 21,2% (21,2%) va quyi texnologiyalisi – 49,0% (45,0%)ni tashkil etdi.



Metallurgiya sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida metallurgiya sanoati 258,3 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,8 % ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 120,7 % ni tashkil etgan.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida metallurgiya sanoati 170,7 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,8%ni tashkil etdi oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 165,4 % ni tashkil etgan.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,9 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 100,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 4043,4 mlrd soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 11,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 103,7 % ni tashkil etgan.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,4 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 100,4 % ga va ishlab chiqarish hajmi 4924,0 mlrd soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 97,8 % ni tashkil etgan.

Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 253,6 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 190,8 mlrd so'mni tashkil etdi.


2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 136,4 % ni tashkil etgan.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 24,1 % ni tashkil etgan bo'lib, fizik hajm indeksi 107,4 % ni tashkil etdi, ishlab chiqarish hajmi 8 205,6 mlrd so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 96,1 % ni tashkil etgan.




Kiyim ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,0 %, fizik hajm indeksi 120,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 2395,5 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 129,2 % ni tashkil etgan.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,1 % ni, fizik hajm indeksi 101,6 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3421,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar- sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 12,9 % ni fizik hajm indeksi esa 106,9 % ni tashkil etgan.


Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar- sentabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 10,0 % ni, fizik hajm indeksi 101,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3421,8 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 12,9 % ni fizik hajm indeksi esa 106,9 % ni tashkil etgan.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9 % ni, fizik hajm indeksi 152,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1311,3 mlrd so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar- sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni fizik hajm indeksi esa 119,9 % ni tashkil etgan.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 166,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 430,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni fizik hajm indeksi esa 142,6 martaga ko'paygan.




Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 58,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 128,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 % ni fizik hajm indeksi esa 113,6 % ni tashkil etgan.




Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 %, fizik hajm indeksi 114,9 %ga ko'paydi hamda ishlab chiqarish hajmi 989,7 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni fizik hajm indeksi esa 123,4 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2024-yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2008,4 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,9 % ini) tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 616,3 mlrd so'mga ko'payganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2023- yil yanvar-sentabr | 2024- yil yanvar-sentabr | Farqi +/- |
|--------------------------------|--------------------------|--------------------------|-----------|
| Elektroenergiya, mln kVt s | 268,5 | 269,1 | 0,4 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 1188,0 | 945,7 | -242,3 |

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 247,9 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 %ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2023- yil yanvar-sentabr | 2024- yil yanvar-sentabr | Farqi +/- |
|---|--------------------------|--------------------------|-----------|
| Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm | 13,8 | 29,6 | 15,8 |
| Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm | 15,5 | 23,5 | 8,0 |


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 29,6 mlrd so'm yoki 2,3 martaga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarini tindirgichlarini va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 23,5 mlrd so'mni tashkil etdi va 2,2 martaga ko'paydi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 7 285,4 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 24,1 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da

2023-yil yanvar-sentabr




2024-yil yanvar-sentabr




Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd so‘m)da

2023-yil yanvar-sentabr




2024-yil yanvar-sentabr




Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 15 288,4 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 50,7 % ni tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 42,2 % ni tashkil etgan.


Sanoat ishlab chiqarish hajmi, yanvar-sentabr mlrd soʻmda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi



jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi % da



| | | |
|--------------|---------|-------|
| Fargʻona sh | 2 478,9 | 29,3 |
| Qoʻqon sh | 2 735,5 | 50,1 |
| Quvasoy sh | 659,2 | 51,5 |
| Margʻilon sh | 1350,7 | 95,5 |
| Oltiariq | 450,8 | 69,7 |
| Qoʻsh tepa | 249,6 | 14,6 |
| Bagʻdod | 627,3 | 81,6 |
| Buvayda | 556,3 | 77,0 |
| Beshariq | 802,2 | 83,9 |
| Quva | 341,2 | 62,3 |
| Uchkoʻprik | 1 975,8 | 68,9 |
| Rishton | 185,5 | 70,0 |
| Soʻx | 94,6 | 100,0 |
| Toshloq | 517,3 | 37,8 |
| Oʻzbekiston | 533,9 | 58,4 |
| Fargʻona t | 235,3 | 22,7 |
| Dangʻara | 746,1 | 85,2 |
| Furqat | 491,9 | 100,0 |
| Yozyovon | 256,6 | 100,0 |

Ishlab chiqarish hajmi, mlrd soʻmda

Jami hajmdagi ulushi, % da

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Mahalliyashtirish darajasi – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to‘lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo‘lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi.

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o‘shish sur‘atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 175 ta loyiha bo‘yicha 2663,3 mlrd so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 34,6 mln AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga 780 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

